



ABDULLA QAHHORNING “DAXSHAT” HIKOYASIDA AYOL OBRAZINING TAHLILI VA TADQIQI

Ilmiy rahbar: Bobojonova Shohsanam Sharifboyevna,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Talaba: Qarshiyeva Durdona Asadulla qizi,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. “Daxshat” hikoyasida o‘sha zamonlardagi o‘zbek ayollari, ayniqsa, ayollarga qanchalik qiyin, og‘ir bo‘lgani o‘z ifodasini topgan. Ayollarning qadr-qimmatini yaxshilash, ularga bo‘lgan e‘tiborni mehr-muhabbatni kuchaytirish taklif qilindi. Demak, o‘sha vaqtlarda ayollar erkin so‘zlay olmas, fikrlarini erkin bayon eta olmas edi. Erkaklar esa go‘riston orqali o‘zlarini mard qilib ko‘rsatishga urinishgani haqida xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, daxshat, qo‘rquv, zamon, xotin-qizlar, ayol, fikr bildirish, qadr, kundoshlik, mojaro.

Abstract. The story “Dakhshat” shows how difficult and difficult it was for Uzbek women of those times, especially women. It was suggested to improve the dignity of women, to strengthen the attention and affection towards them. So, at that time, women could not speak freely and express their thoughts freely. It was concluded that the men tried to show themselves as brave through the cemetery.

Key words: story, horror, fear, time, women, woman, expression, value, daily life, conflict.

Аннотация. Рассказ «Дахшат» показывает, как тяжело и тяжело приходилось узбекским женщинам тех времен, особенно женщинам. Предлагалось улучшить достоинство женщин, усилить к ним внимание и привязанность. Итак, в то время женщины не могли свободно говорить и свободно выражать свои мысли. Был сделан вывод, что мужчины пытались показать себя смелыми через кладбище.

Ключевые слова: рассказ, ужас, страх, время, женщины, женщина, экспрессия, ценность, повседневность, конфликт.

Unsin Dodxoning kenja хотini. O‘sha zamonlarda ayollar o‘z fikrini bildira olmagan. Bildirgan taqdirda ham Dodxodek manfur insonlar qo‘lida aziyat chekishar edi.



Dastlab “Daxshat” asarida kuzak shamolining qo‘rqinchli shivillashi, chiyillashi, g‘uvillashi tasvirlanadi. Olimbek Dodxoning sakkiz xotini bo‘lib, ularning ichidan eng kichigi Unsin bo‘ladi. Unsinning kelin bo‘lib tushganiga 5 oygina bo‘lgandi. Unsin eri Dodxodan javobini olib, ota-onasi, dugonalarini sog‘inib ularning yoniga Ganjirovonga qaytmoqchi bo‘ladi. Dodxoning 8 xotini barchasi mute bo‘lib, jaholatga qarshi kurasha olmas, o‘z fikrini bildira olmaydigan ayollar edi. O‘sha zamonlardagi ayollarning taqdiri ayanchli bo‘ladi. Buni hatto hikoyada ham uchratamiz. Unsin dodxoga qarshi chiqqanida kundoshlarining qo‘rquvi va Unsinga jim bo‘l deb imlashi, ham misol bo‘ladi.

Ayol uchun eng og‘ir narsa bu kundoshlikning ko‘rish. Nodirmohbegim necha yillardan buyon bu kunni ko‘rib, yashab kelmoqda edi. Ammo Unsin bu narsalarning hech biriga toqat qilolmay oxir oqibat yoriladi.

U pul yoki mol-mulk, qo‘y uchun emas. Balki o‘zining ozodligi uchun hammasiga tayyor edi. Unsinga kuch berib uning jasoratini oshirgan narsa bo‘yra edi. Eshikga kelib urilgan bo‘yradan Unsin jasurlashadi, Dodxo esa go‘riston hayollari borligi tufayli ham qo‘rquvi oshadi. Unsinning o‘limi Nodirmohbegimga ham jasorat beradi. Necha vaqtlardan buyon qila olmayotgan ishini qiladi. Paranj va oq tugunchasini olib Nodirmohbegim ketadi.

Uning oxirgi xayoliga kelgan narsa mushtlab uch marta yerga qadab “bu dargohni endi yelkamning chuqur ko‘rsin”, deb xayolidan o‘tkazib aravaga minib jo‘nab ketadi.

O‘sha zamonlarda ko‘p xotinlik avj olgan edi. Xotin-qizlar barchasi paranjida yurishar, na erkin yashar, na erkin gapira olishar edi. Doim mute holatda qafasdagi qushdek yashar edi. Buni birgina hikoya orqali Unsinning hayoti orqali o‘sha zamon, davrdagi muhit tasvirlangan.

Hozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan ayollarga ko‘p e‘tibor berilmoqda. Ularni erkin yashashi, so‘zlashi uchun va hatto xotin-qizlar hozirda katta-katta minbarlarda ham, ochiq tarzda o‘z fikrlarini bildirib so‘zlashmoqda. Ayollarni doimo qadrlash, e‘zozlash, ularga mehr berish e‘tibor qaratish lozim.

Fikrimizcha, A.Qahhor bu hikoya orqali ham, o‘sha zamondagi ayollarning dardini ichidagi so‘zlarni aytmoqchi bo‘lgan va buning uddasidan chiqqan ham.

Va yana aytishimiz mumkinki, Unsinni “Kecha va kunduz” asaridagi Zebiga ham o‘xshatishimiz mumkin. Zebi ham juda aqlli, qobiliyatli, ovozi ham shirali qiz bo‘ladi.



Ammo taqdirning taqozosi bilan u Mingboshiga beshinchi xotin bo‘ladi, turgan gapki, uni kundoshlari xohlamay uni o‘ldirmoqchi ham bo‘lishib, boshiga og‘ir kunlar tushadi. Faqatgina Zebi yoki Unsin emas, balki ko‘pgina oilalarda ham xuddi shunday qiyinchiliklar bo‘lgan. Jadidchilik davrining endi boshlanish nuqtasi tasvirlangan har ikkala asarda ham. Ya’ni shu bo‘lgan ko‘rinadi voqealar o‘sha jadid davrini boshlanishiga turtki bo‘lgan desak ham bo‘ladi. O‘sha davrda boylarda ko‘p xotinlikni ya’ni xotin ustiga xotin olish juda ko‘p bo‘lgan ularda.

Bu vaqtda shunchalar qiyin bo‘lganki hattoki ayollarni odam o‘rniga ham ko‘rishmagan. Oddiy xalqqa doim past nazar bilan qarashib kelishgan. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng aholi hayotini yaxshilashga, eng muhimi xotini-qizlarga o‘z erkini qaytarishga kirishilgan. Va hozirda mana bizning ayollarimiz ham dunyo rekordlarini yangilashgacha yetib borishmoqda. Ayollarga yordam pullari ajratilgan. Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan Ayollar daftari, ya’ni bu o‘sha nogironligi bor yoki boquvchisi yo‘q, ayollar uchun nafaqa pullari ajratilgan daftardir. Bo‘sh ish o‘rinlari yaratib berilmoqda. Qizlarni o‘qimishli bo‘lishlari uchun ko‘pgina imkoniyatlar berilmoqda. Shuni misol qilib keltirishimiz mumkinki, magistraturaga kontrakt asosida o‘qishga kirgan xotin – qizlarning kontrakt pullari davlat tomonidan to‘lab berilishi hozirgi kunda jamiyatda ayollarning qadr-qimmatining, jamiyatda tutgan o‘rnining oshib borishi demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Normatov U. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati. [Toshkent. „Universitet“](#), 1999.
2. Qo‘chqorov R. Men bilan munozara qilsangiz. -T. Ma’naviyat nashr. 1999.
3. Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. — T.: [„O‘qituvchi“](#), 1999.